

AHOLIGA QIMMATLI QOG'OZLARGA INVISTITSIYA QILISH FAOLIGINI OSHIRISH MEHANIZMLARI

Nodirjonova Dilbar

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

MBAN-11 u guruhi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish tendensiyalari, "Toshkent" Respublika fond birjasida savdolarni tashkil etish tizimi va ularning tahlili, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, investitsiya va jamg'arishning mutanosib shakllanishi, aksiyadorlar jamiyatlarining rivojlanish holati va ular tomonidan qimmatli qog'ozlarning muomalaga chiqarilishidagi asosiy muammolar o'rin olgan. Qimmatli qog'ozlar fuqaro huquqlarining obyekt sifatida tovar-pul munosabatlarini rivojlantirish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga yaqindan yordam beradi. Avvallari, rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida qimmatli qog'ozlarning ayrim turlari mulk munosabatlarida ishlatilgan (obligatsiyalar, lotoreya chiptalari, tashqi savdo aylanmasidagi veksellar). Hozirgi kunga kelib esa iqtisodiyotni bozor iqtisodiyotiga o'tkazish va qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish qimmatli qog'ozlarning turlarini qayta tiklash va yangi turlarini yaratishni talab qildi.

Kalit so'zlar: Qimmatli qog'ozlar, iqtisodiyot, bozor, kapital.

Аннотация. В данной статье рассмотрены тенденции развития рынка ценных бумаг в Узбекистане, система организации торгов на Республиканской фондовой бирже "Ташкент" и их анализ, основные факторы, влияющие на развитие рынка ценных бумаг, сбалансированное формирование инвестиций и сбережений, состояние развития акционерных обществ и основные проблемы выпуска ими ценных бумаг. Ценная бумага "Оз" как объект гражданских прав тесно способствует развитию товарно-денежных отношений и развитию экономики страны. Ранее в условиях плановой экономики отдельные виды ценных бумаг использовались в имущественных отношениях (облигации, лотерейные билеты, векселя во внешнеторговом обороте). К настоящему моменту, с переходом экономики к рыночной экономике и формированием рынка ценных бумаг, ценные бумаги "возрождают" виды ценных бумаг и формируют новый рынок ценных бумаг.

Ключевые слова: акции, экономика, рынок, капитал.

Annotation. This article covers the development trends of the securities market in Uzbekistan, the system of organizing trade on the Tashkent Republican Stock Exchange and their analysis, the main factors affecting the development of the securities market, the proportional formation of investment and savings, the state of

development of shareholder societies and the main problems in the circulation of securities by them. Valuable paper as an object of civil rights closely helps to develop commodity-money relations and develop the country's economy. Previously, in the conditions of a planned economy, some types of valuable paper were used in property relations (bonds, lotorian tickets, bills in foreign trade turnover). To date, while shifting the economy to a market economy and forming a market for valuable papers is reestablishing the types of valuable papers and creating a new.

Keywords: Securities, economy, market, capital.

O'zbekiston fond bozorining yosh bo'lishiga qaramay, uning tarixidan optsionlar va fyuchers bo'yicha aniq bitimlar bilan bog'liq sahifalar joy oldi. Ayrim optsion shartnomalari 1992 yilda „Toshkent“ birjasining fond bo'limida tuzilgan. Davlat mulki ulushini, shuningdek, erkin sotuvga va hamkorlarga sotish uchun mo'ljallangan ulushlarni sotish uchun davlat mulki qo'mitasining opsiioni to'g'risidagi Nizom Respublika Adliya vazirligi tomonidan 1994 yil 24 oktyabrda 110- raqam bilan ro'yxatga olindi, unga muvofiq xususiylashtirilayotgan korxonalarining ustav fondlari ulushlarini (bo'lajak aksiyalarni) sotish amalga oshirildi. Nizomga ko'ra optsionlar ulushlari bo'yicha optsion shartnomalarining birjadan tashqari kimoshdi savdolari o'tkazildi, ular bo'yicha mukofotlarniig dastlabki baholari korxona ustav fondi ulushining sotuvga qo'yilgan paketi nominal qiymatining taxminan 40 foizini tashkil etdi. Kimoshdi savdosida yutib chiqqan shaxs korxona ustav fondi ulushini xarid qilish, lekin qimmatli qog'ozlar ko'rinishida, emitent tomonidan ular muomalaga chiqarilganidan keyin shartnomada kelishilgan qat'iy (odatda nominal) narxda yoki bitimdan voz kechish huquqini qo'lga kiritdi. 1995-yilda O'zbekiston Respublikasi davlat mulki qo'mitasining Toshkent viloyati boshqarmasi va „Toshkent“ Respublika fond birjasi tomonidan Toshkent viloyati davlat mulki boshqarmasining davlat mulkini, shuningdek, erkin sotuvga mo'ljallangan ulushlarni sotish uchun fyuchers shartnomasi to'g'risida nizomi tasdiqlandi.

1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar va fond birjalari to'g'risida» gi Qonuniga muvofiq «Qimmatli qog'ozlar bu ularni chiqargan shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy hududlarini yoki qarz munosabatlarini tasdiqlovchi dividendini yoki foiz ko'rinishida daromad to'lashni xamda ushbu xujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxsga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi pul xujjatlaridir». 1992-yilning yanvarida «Toshkent» birjasining Fond bo'limi respublikada birinchi bo'lib qimmatli qog'ozlar bilan muntazam savdolarini o'tkazishga kirishdi. O'sha 1992 yilda «Toshkent» birjasi Fond bo'limining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha aylanmasi 26 mln.rublni tashkil qildi, bu Rossiyaning dongdor fond birjalarining xuddi shunday ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadigan darajada edi. Fond birjasi o'z faoliyatida O'zbekiston

Respublikasi qonun hujjatlariga, birja ustaviga hamda qimmatli qogʻozlar bilan bogʻliq yumushlarni amalga oshirishning ichki qoidalariga qiladi Fond birjasi (mol-fond birjasining yoki valyuta birjasining fond boʻlimi) Oʻzbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq roʻyxatdan oʻtkaziladi va u qimmatli qogʻozlarga doir birja faoliyati yuritish uchun Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligidan litsenziya oladi. Qimmatli qogʻozlarga doir birja faoliyati yuritish uchun litsenziya olmagan tashkilot bunday faoliyat yuritishga haqli emas. Mol-fond birjalari va valyuta birjalarida mustaqil tarkibiy boʻlinma va mustaqil boʻlmagan tarkibiy boʻlinma sifatida fond boʻlimlari tashkil etilishi mumkin. Fond boʻlimlari oʻz faoliyatlarida fond birjalariga qoʻyiladigan barcha talablarga amal qilishlari lozim. Qimmatli qogʻozlar muomalasini amalga oshirish huquqini beruvchi ruxsatnoma (litsenziyasi) boʻlgan yuridik va jismoniy shaxslar fond birjasi muassislari boʻlishlari mumkin. Birjada brokerlik oʻrnini sotib olgan yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, ajnabiy yuridik va jismoniy shaxslar fond birjasining (mol-fond yoki valyuta birjasi fond boʻlimining) aʼzolari boʻlishlari mumkin. Fond birjasi aʼzolarining miqdorini birjaning boshqaruv organlari, ularning mansabdor shaxslari va mutaxassislari fond birjasi aʼzolari boʻlishga haqli emaslar. (OʻzRning 22.09.2005 yil OʻRQ-7-son Qonunining 2-moddasiga asosan tahrirda soʻzlar bekor qilindi) Fond birjasi aʼzolari qimmatli qogʻozlar muomalasini amalga oshirish uchun ruxsatnomalarga ega boʻlgan hamda investitsiya muassasasi maqomini olgan taqdirdagina oldi-sotdiga qoʻyiladi. Brokerlik oʻrnini sotib olgan jismoniy shaxs uni davlat hokimiyati mahalliy organlarida roʻyxatdan oʻtkazganidan va bankda hisob-kitob schyoti ochganidan keyingina oldi-sotdiga qoʻyilishi mumkin. Qimmatli qogʻozlarga doir birja amallari qoidalarini birjaning yuqori boshqaruv organi tasdiqlaydi.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish: Nazariy asoslar va amaliy mexanizmlar

Moliyaviy savodxonlik — bu individlar va jamiyatlarning moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, investitsiya qilish va qarorlar qabul qilishga qodir boʻlishini anglatadi. Finansial savodxonlikni oshirish mamlakatdagi qimmatli qogʻozlar bozorining oʻsishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Bu jarayonlarning ilmiy yondashuvi Richard Thaler va Cass Sunsteinning "Nudge" kontseptsiyasi orqali tushuntirilishi mumkin. Aholiga qimmatli qogʻozlar bozoriga kirishning oddiy va tushunarli mexanizmlarini taqdim etish, ular uchun maʼlumotlarning mavjudligi va oson tushunilishi investitsiya faolligini oshiradi. Moliyaviy savodxonlikni oshirishning ilmiy yondashuvi esa aholiga investitsiya imkoniyatlarini tushuntirishda asosiy mexanizm hisoblanadi. Bu savodxonlik nafaqat asosiy investitsiya tushunchalarini oʻrgatish, balki investitsiyalar bilan bogʻliq xavf va imtiyozlarni tushuntirishni oʻz ichiga oladi. Ular taʼkidlashicha, ijtimoiy tizimlarda maʼlumotning mavjudligi va oson tushunilishi, aholining investitsiya qarorlariga taʼsir koʻrsatadi. Moliyaviy savodxonlikni oshirishda

ommaviy axborot vositalari katta rol o'ynaydi. Televizion va radio dasturlarida moliyaviy savodxonlik va investitsiya bo'yicha tushuntirishlar, maxsus ko'rsatuvlar va seminarlar tashkil etish aholining bozorga nisbatan ishonchini oshiradi. Hozirgi kunda, investitsiya sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan davlatlar misolida (AQSh, Singapur, Germaniya) bu kabi dasturlar faol amalga oshirilmoqda. Banklar, brokerlik kompaniyalari, investitsiya fondlari orqali aholiga moliyaviy maslahatlar berish orqali risklarni boshqarish, diversifikatsiya va portfelni to'g'ri shakllantirish haqida maslahatlar olish mumkin. Ushbu xizmatlar orqali aholi bozorni yaxshiroq tushunadi va xavf-xatarlarni boshqarish bo'yicha bilimlarga ega bo'ladi. Investitsiyalarga kirishning eng keng tarqalgan yo'li — brokerlik xizmatlaridir. O'zbekistonda brokerlik xizmatlari va fond bozoriga kirishning soddalashtirilgan mexanizmlari aholiga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin. Hozirgi kunda brokerlik kompaniyalari orqali aksiyalarni sotib olish va sotish jarayonlari sezilarli darajada murakkab, biroq soddalashtirilgan tizimlar orqali aholi faolligini oshirish mumkin.

Investitsiya qilishni rag'batlantirishning samarali usuli — bu soliq imtiyozlari. Yuqori daromadlar orqali qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritadigan investorlar uchun soliqlarni pasaytirish, dividendlar bo'yicha soliq stavkalarini kamaytirish hamda uzoq muddatli sarmoyalar uchun soliq ta'tillari berish orqali investitsiyalarni jalb qilish mumkin. Masalan, AQShda Individual Retirement Accounts (IRA) va 401(k) kabi pensiya hisoblari orqali aholiga investitsiya qilishni rag'batlantirish tizimi mavjud. Davlat tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar — bozorga kirayotgan kichik investorlarga xavfsiz variantlarni taqdim etadi. Davlat loyihalariga sarmoya kiritishni rag'batlantiruvchi ijtimoiy obligatsiyalar aholiga ijtimoiy jihatdan foydali loyihalarda ishtirok etish imkoniyatini beradi, shu bilan birga ularning moliyaviy savodxonligini oshiradi.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham soliq siyosatini isloh qilish, dividendlar bo'yicha soliq stavkalarini kamaytirish, kapital daromadlariga soliq imtiyozlarini joriy etish orqali aholining investitsiya qilishga bo'lgan rag'batini kuchaytirish mumkin. Bundan tashqari, davlat obligatsiyalarini chiqarish orqali bozorga xavfsiz sarmoya kiritish vositalarini taqdim etish, kichik investorlar uchun qulaylik yaratadi. O'zbekiston Respublikasida davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi qoshida qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini lashtirish va nazorat qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining (30 mart 1996 y) binoan maxsus markaz tashkil etildi. Markazning o'z faoliyatlari doirasida qabul qilgan qarorlari, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, xo'jalik birlashmalari, korxonalar va tashkilotlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarining fuqarolari tomonidan bajarilishi majburiydir. Nisbatan katta hududlarga ega bo'lgan mamlakatlarda, odatda qimmatli qog'ozlarning mintaqaviy yoki mahalliy bozorlari shakllanadi. O'zbekistonda masalan, qimmatli qog'ozlarning local bozorlari qimmatli

qogʻozlar bilan savdo qilishni Qoraqolpogʻiston Respublikasi, Toshkent shaxri va 12 ta viloyatdan iborat boʻlgan maʼmuriy-xududiy tuzilmalar ixtiyoriga topshirish tamoyili bilan namoyon etilgan. Bu mintaqalarning har birida davlat boshqaruvi idoralari, fond birjalarining boʻlinmalari, qimmatli qogʻozlar bozori umumiy va maxsus infratuzilmasining muassalari mavjud.

Aholining qimmatli qogʻozlarga investitsiya qilish faolligini oshirish, asosan, moliyaviy savodxonlikni oshirish, investitsiya infratuzilmasini takomillashtirish, soliq imtiyozlarini joriy etish va bozor shaffofligini taʼminlash kabi kompleks mexanizmlarni amalga oshirishni talab etadi. Yangi investorlarga qulay sharoit yaratish, ularning xavf-xatarlarini boshqarish va bozorni soddalashtirish orqali ular moliyaviy bozorga kirishga tayyor boʻlishadi.

Oʻzbekistonda investitsiya bozorini rivojlantirishda davlatning ishtiroki muhim. Kapital bozorini kengaytirish va investorlarni qoʻllab-quvvatlash orqali aholi oʻrtasida investitsiya madaniyatini shakllantirish mumkin. Bunday amaliyotlar iqtisodiy oʻsish, innovatsiyalar va ishlab chiqarishning modernizatsiyasiga yordam beradi.

Shuningdek, psixologik omillarni hisobga olgan holda, aholining investitsiyaga boʻlgan ishonchini oshirish va xavflarni boshqarish usullari ham ahamiyatlidir. Ochiq va shaffof bozor tizimi, investorlar huquqlarini himoya qilish, moliya bozoriga boʻlgan ishonchni mustahkamlash aholi investitsiya faolligini oshirishda eng asosiy omillar hisoblanadi. Kapital bozoriga yangi investorlarga qulay sharoit yaratish va ularni ragʻbatlantirish orqali Oʻzbekiston iqtisodiyoti yanada rivojlanadi va barqaror oʻsish surʼatlarini taʼminlashga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Qimmatli qogʻozlar bozori turlarining rivojlanish tarixi” Usmonova X, Toshkent 2006
2. John C. Hull “Options, futures, & other derivatives”, Fifth Edition, Prenticehall, Uppersaddle River, New Jersey, 2005
3. Татьянаников В. Фондовый рынок: новый этап развития? // Рынок ценных бумаг. – 2003. - № 6.
4. Sh. Sh Shoxaʼzamiy “Фондовый рынок и Рынок ценных бумаг” Книга II, 2005
5. World Federation of Exchanges - Statistics/Monthly
6. Thaler, R. H., & Sunstein, C. R. (2008). Nudge: Improving Decisions About Health, Wealth, and Happiness. Penguin Books.
7. Shiller, R. J. (2015). Irrational Exuberance. Princeton University Press.
8. www.sec.gov
9. www.wikipedia.org
10. www.uzse.com